

OGAHIYNING VA UNING “GULSHA UD-DAVLA” ASARI

Bahodirova Madinabonu Nodirjonovna
FarDu 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Gulshan ud-davla asarining tarixiy va badiiy ahamiyati ko‘rib chiqilib, asardagi elchilik aloqalari, qo‘zg‘alonlar va uning sabablari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rizo Ogahiy, Gulshan ud-davla, Sayid Muhammad Bahodirxon, turkiston xalqi, qo‘zg‘alon, terminlar.

Har bir xalqning o‘zligini anglashida, uning o‘tmishiga bo‘lgan munosabati muhim o‘rin tutadi. Chunki tarix – bu shunchaki o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealar emas, balki kelajakni ochib beruvchi yo‘ldir. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’kidlanidek “Tarixsiz kelajak yo‘q”. Zero o‘z tarixini unutgan xalq o‘zligini unutadi, ildizidan qurishni boshlaydi va oxir-oqibat yo‘qlikka yuz tutadi. Shuning uchun ham tarixni, tarixiy asarlarni o‘rganish, kelajak sari yangi qadam qo‘yish demakdir. XIX asrda yashab ijod etgan Xorazmlik adib Ogahiyning tarixiy asarlari orqali biz nafaqt O‘zbekiston, balki turkiston xalqlari haqida ham talaygina ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Vazirlar mahkamasining “Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning ijod maktabini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. Bu esa Ogahiy ijodini yanada chuqurroq o‘rganishga imkoniyat yaratdi.

Ogahiy (to‘liq ismi Muhammad Amin Ogahiy) – O‘zbekistonning buyuk adibi, shoir va mutafakkiri bo‘lib, XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida yashagan. U Farg‘ona vodiysida tug‘ilib, o‘z asarlarida o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy va axloqiy masalalarini chuqur tahlil qilgan. Ogahiy, ayniqsa, o‘zining falsafiy va didaktik she‘rlari bilan tanilgan bo‘lib, uning ijodi Sharq adabiyotining eng nufuzli namoyandalari qatoriga kiradi. Ogahiy asosan o‘zining nasriy asarlari va she‘rlari bilan tanilgan. Uning ijodi o‘zida zamonining murakkab ijtimoiy va siyosiy hayotini, jamiyatning axloqiy muammolarini, hukumat boshqaruvi va davlat tizimining zaifliklarini o‘z ichiga oladi. U Farg‘ona vodiysida hukmronlik qilgan qabilaviy tuzum va monarxiyaning zaif tomonlarini tanqid qildi. Shu bilan birga, Ogahiy o‘zining asarlarida ilm-fan va axloqiy yuksalishning ahamiyatini ta’kidlagan. Ogahiy o‘zining eng mashhur asarlaridan biri "Gulshan ud-Davla" (Davlatlar bog‘i) bo‘lib, bu asarda u nafaqt shaxsiy, balki siyosiy va ijtimoiy masalalarni ham o‘rgangan. Shu asarida, Ogahiy davlat boshqaruvining ideal tamoyillarini o‘z zamonasining realliklari bilan solishtirib, uning zaif tomonlarini ochib berishga harakat qilgan.

Ogahiy Xorazm tarixi bo'yicha "Riyoziy ud-davla", "Zubdat ul-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoni", "Gulshan ud-davla", "Shohidi iqboli" asarlarini yaratgan bo'lib, bulardan "Gulshan ud-davla" alohida o'ringa ega. Ushbu asarning 2 nusxasi 7572, 12552 tartib raqamlari bilan O'zRFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari orasida, SankPeterburgdagi Sharqshunoslik institutida E1891 NOY 215 raqamlik 2 nusxasi saqlanmoqda. "Gulshani davlat" faqatgina tarixiy emas, balki ma'lum bir ma'noda badiiy asar ham hisoblanadi, chunki asarning 30/35 foizi she'riy parchalardan iborat. Asarda shoirning 66 ta masnaviy, 12ta ta'rix, 2ta qasida, 51ta nazm sarlavhasi bilan she'rlari, 22ta qit'a, 8ta bayt, 2ta g'azal, bir noma, bir fard va bir marsiya mavjud.

Asar Sayyid Muhammad Bahodirxonning taklifi bilan yaratilgani uchun asarda shohning tug'ilishidan to hayotining so'nggi paytlarigacha bo'lgan voqealar keltirilgan. Ma'lumki Ogahiy 8 ta xon davrida yashab ijod etgan bo'lib, Bahodirxonga olamdan ne-ne shohlar, hukmdorlar o'tganini, biri adolatli, yana biri shafqatli bo'lib xalqning duosini olgan bo'lsa, yana biri zolim bo'lib, xalqqa azob berganini, ko'pning duosi qabul bo'lishini, inson bu dunyoga yalang'och kelib, yalang'och ketishini, bir kuni yer uni ham o'z bag'riga olishini aytib, nasihatlar qiladi.

Agar yaxshi erdi va gar xud yomon,

Yer ostida bo'ldi barisi nihon.

"Gulshan ud-Davla" asarida Ogahiy davlat boshqaruvi, davlat rahbarlarining axloqiy mas'uliyati va davlat siyosatining adolatli bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Asarda ko'plab syujetlar va voqealar orqali davlatni boshqarishning murakkabliklari, xalqning siyosiy hayotdagi o'rni, shuningdek, elchilik masalalari, diplomatiya va qo'zg'alon kabi masalalar yoritiladi. Ogahiy, o'z asarida davlat boshqaruvining samarasizligini, adolatsizlik va zulmni tanqid qilgan holda, ideal davlat tuzumining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Unga ko'ra, davlat rahbari o'z xalqi oldidagi mas'uliyatni to'liq his etishi, adolatli va bilimdon bo'lishi kerak. Asarida qo'zg'alon va isyonlarni faqat haqqoniy boshqaruvni tiklash uchun zaruriyat sifatida ko'rib, siyosiy qarorlarning oqibatlarini chuqur tahlil qiladi. Asarning asosiy mazmuni tarixga qaratilgani uchun undagi bo'layotgan voqeaning har biri aniq sodir bo'lgan yili, oyi va kuni bilan beriladi. Masalan: Ya'ni yilon yilim, tarixi hijriy ming ikki yuz yetmish to'rtida, rajab oyining ikkisida dushanba kunim, peshin namozi adosidin so'ng; Jumodilavval oyining yigirma to'qqizida panjshanba kuni, yilqi yili vuqoeining zikrim, tarixi hijriy ming ikki yuz yetmish to'rtga muvofiq erdi; Sanai hijriya ming ikki yuz yetmish to'rtida shabon oyining oltisida yakshanba kuni navruzi olamafruz kirib keldi.

Asarda 1855- yili yuz bergan ochlik balosi keltirilgan bo'lib, bu ro'yhat bo'yicha Qo'ng'irotda 865 kishi o'lgan. "Lojaram fuqaro va raoya ochlig' balosining shiddati va zolimlar jafosining suhbatiga tob-u toqat keltira olmay, jon muhaabbati va jon lazzatidin ilik chekib, mamot zahrin hayot sharbatiga tarjeh qilib, sanasi ming ikki

yuz yetmish oltig'a dohil bo'lgandan so'ng muharram oyining to'rtida panjshanba kuni barcha ittifoq bila Boboxo'ja va Qulman dorug'a boshliq nujum xaylidek hujum ko'rguzub Muhammad panohxon ul holdin xabar topib o'zining ansoru a'voni bila xovlig'a qabolib, miltuq otib mudofaa amriga mashg'ul bo'ldilar. Choshtdin to peshingacha ikki tarafdin miltiq otishib, iqdom uv qiyom ko'rguzdilar".

Ikki soridin aylab ohanggi jand,
 Qilib qasd bir-biriga bedarang,
 Bo'lub har taraf hilvatgar xarbolar
 Ikki yonga ham yetjurib zarbalar.
 Havola bo'lub kullai otashin,
 Kirib siynalarga bo'lub dilnishin,
 Necha kimsaning jismi yuz choh olub
 Tushub yerga oludai hok o'lub.

Ochlik va yo'qsillik xalqning tinka madorini shu qadar quritganki, odamlar tirik qolish uchun harom narsalarni ham yeyishavergan. Har turdagi soliqlar ham xalqning ahvolini battar yomonlashtirgan. Shu sababdan xalq bosh ko'tarib, qo'zg'alonlar qilgan. Hijriy 1372-yil Sayyid Muhhammadxon taxtga o'tirgandan 38 kun o'tgan eng go'zal fasl bahor boshlanadi. Xon buyrug'i bilan ombor eshiklari lang ochilib, qishi bilan saqlangan urug'liklar yer yuziga sochiladi. Ogahiy ushbu asarda shohni shu darajada adolatli qilib tasvirlaydiki, yamutlarning oldiga eshon yuborib taslim bo'lishlarini aytadi, taslim bo'lib kelgan dushmanlarni afv etib siylaydi, ularga jazo bermaydi. Hattoki afv etilganlar 2- marotaba shohga isyon qilishsa, kechirim so'rab kelganlarni kechiradi, ularga o'z yutlariga ketish o'sha yerda yashashlariga ruxsat beradi.

Ogahiy adabiyotdagi o'ziga xos uslubi, chuqur falsafiy fikrlari va ijtimoiy tahlilchiligi bilan o'z davrida muhim ahamiyatga ega bo'lgan adibdir. "Gulshan ud-davla" kabi asarlari orqali u nafaqat o'z zamonining siyosiy va ijtimoiy muammolarini yoritdi, balki umumbashariy qadriyatlar haqida ham chuqur fikrlar bildirdi. Ogahiy o'zining adabiy merosi bilan Sharq adabiyotining rivojiga katta hissa qo'shgan va bugungi kungacha o'zining axloqiy, siyosiy va falsafiy ta'limotlari bilan ahamiyatini yo'qotmagan buyuk shoirdir. Xulosa qilib aytganda biz ushbu asardan nafaqat tarixiy haqiqatlarni bilib olamiz, balki adibning go'zal she'r va muxammasalaridan ham bahramand bo'lishimiz mumkin. Adib ushbu asarni o'z qo'li bilan yozgani uchun Xorazmning tarixi, xonlari va xalq qo'zg'alonlarini aniq ravishda o'rganishimiz mumkin. "Gulshan ud-davla" faqat O'zbekiston emas, balki o'sha paytda rus tuzemi ostida bo'gan turkiston xalqining tarixini o'zida mujassam etadi.

Foydaanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1) Muhammad Rizo mirob Erniyozbek O'g'li Ogahiy asarlar VI jildlik.
- 2) "Ogahiy va uning Gulshan ud-davla asari" maqola.

- 3) Ishmurotov Madamin Jumabayevich “Xoramz turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi” dissertatsiyasi.
- 4) Muhammad Rizo Erniyozbek o.,li Ogahiy tavalludining 210 yilligini keng nishonlash hamda Xiva shahridagi Ogahiy maktabini tashkil etish.
- 5) <http://lex.uz/docs/4249861>.